

## «BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAZMUN VA MOHIYATLARI»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830649>

**Aliyeva Nasiba Aminjanovna**

*Toshkent shahar Shayxontohur tumani*

*324 o'rta maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *maqolada matematika darslarida arifmetik amallar va ularning xossalarini o'rganish jarayonida matematik metodlarni qo'llab mashqlar va misollardan foydalanish asosida o'quvchilarning qiziqishlarini va ko'nikmalarini tarkib toptirish texnologiyalari haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich sinf, matematika, bilim, misollar yechish*

Matematika fanlar ichida eng qiziqarli va mazmunli fandır. Bu fanni ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'qitishda chuqur e'tibor berish kerak. Xuddi shuningdek bizning mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematik kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifati qaraladi .

Darhaqiqat matematikani o'rgatish biz murabbiylardan muhim mohiyatni talab qiladi. Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab kursini rivojlantirish asosiy ta'lim bosqichlaridan hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika fanini o'qitish ta'limning muhim ahamiyatidir .Maktab matematika dasturini boshlang'ich sinflardayoq shu darajada o'zlashtirish zarurki, bunda ular o'quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin. Maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar matematika sohasidagi dasturda nazarda tutilgan bilimlar ,ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytilgan mulohazalarni hisobga olish kerak.

Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy prinsip va qonuniyatlarni tushunishni qarab chiqayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishni nazarda tutadi. Bu, asosan amallarning xossalarini, ular orasidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga bolalarda shakllanayotgan amallarni o'quv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishga taalluqlidir. Nazariya amaliy o'quv va ko'nikmalarni egallashga yordam berib qolmay, nazariya va amaliyotning qarab chiqilayotgan masalalari orasida matematik munosabatlarni o'rnatishga, matematika o'qitish samaradorligini oshirishga o'qituvchiga yordam beruvchi asosiy vositalardir. Shu bilan birga bilimlarni qo'llash ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. Bilim o'quv va

malakalarning to'la qiymatli o'zlashtirishga ularning o'zgaruvchi sharoitlarda mustaqil qo'llanishi natijasiga erishish mumkinligini psixologlar isbotlashgan.

Bolalarning maktabda boshlang'ich sinflaridan keying sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'p darajada aynan ana shu asosda bartaraf etilishi mumkin. Bu aksincha, agar o'qituvchi har tomonlama bilimlarga maxsus e'tibor bermasa va bolalarni bir xil turdagi savollarga ,topshiriq,ifodalarga,masalalarga o'rgatib qo'ysa,bu 5-sinfda fanlar bo'yicha o'qitishga o'tishdagi murakkablikni yanada orttiradi.Bu masala bolalar bilim qobiliyatlarini o'stirishning ancha umumiy masalasi bilan uzviy bog'langan.Boshlang'ich maktabdayoq bolalarda kuzatish va taqqoslash ,solishtirilayotgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qiladigan belgilarni ajralish , tahlil ,sintez,umumlashtirish ,abstraksiyalash,aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko'p ish qilingan bo'lishi kerak.

Bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda tog'ri aniq,qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir.Rivojlanayotgan ta'lim haqida gapirganda ish faqat bilish qobiliyatlarini (idrok, xotira,tafakkur,tasavvur,nutq)rivojlantirishdangina iborat deb o'ylash xatodir.Matematika bilan shug'ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay,balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham bo'ladi. Boshlang'ich matematika kursining asosiy materiali natural sonlar va asosiy kattaliklar matematikasidir.Shu bilan birga kurs tarkibiga algebraik va geometric mazmundagi masalalar ham kiritilgan.Dasturda ko'rsatilganidek ,boshlang'ich matematika kursi maqsadga muvofiq ravishda tanlangan Sistema asosida oshib beriladi.Bu asosiy qoidalar kursning asosiy mazmunini qarab chiqishda hisobga olinadi.

Butun boshlang'ich ta'lim davomida bolalarda natural son va arifmetik amallar haqidagi tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.Boshlang'ich matematika kursida o'quvchilarni o'zgaruvchi tushunchasini o'zlashtirishga asta-sekin tayyorlash masalasi ko'zda tutiladi.Bu ish 1-sinfdanoq boshlanadi ,unda "darchali misollar qarab chiqiladi.

Bolalar boshlang'ich sinfdanoq oddiy tenglamalar bilan ham tanishadi,unda harf faqat noma'lum sonni ifodalaydi.Bunda bolalar noma'lum son sifatidagi x harfli bilangina tanishmay bu yerda harf tegishli ifodalarda turli son qiymatlarni qabul qiluvchi sifatida keladi.Bolalar eng soda harfiy qiymatlarni ma'nosini tushuna bilishlari ,ularga kirgan harflarning berilgan son qiymatlarida ifodalarning qiymatlarini topa olishlari, o'zgaruvchining qanday qiymatlarida  $3+a>7$  tengsizlik to'g'ri bo'lishini bilishlari kerak.Harfiy simvolika elementlari bilan tanishish bolalarning o'zgaruvchi tushunchasini o'zlashtirishga va masalalarni yechishning algebraik usullaridan foydalanishga tayyorlash masalasidan tashqari dasturning asosini tashkil etuvchi arifmetik materialni umumlashtirish maqsadida foydalaniladi.Shu munosabat bilan 3-4sinflarda harf bilan berilgan masalalarni yechishga,harfiy ifodalarni tuzishga,ularni taqqoslashga va hokazolarga alohida e'tibor beriladi.Tegishli arifmetik masalalarni

qarab chiqish bilan bog'liq holda tenglamalarni yechish bilan bog'liq ish asta-sekin kuchaytirib boriladi. Dasturda har bir temani o'rganishda yechiladigan tenglamalarning xolati va murakkabligini ko'rsatuvchi namunalar keltirilgan.

Geometrik material (algebraik materialningari)dasturda mustaqil bo'lim sifatida o'qitish jarayonida ajratib ko'rsatilmaydi Geometrik mazmunli masalalarni imkon bo'lgan vaqtda, kursning boshqa masdalalari bilan yaqin aloqada doim qarab chiqiladi. Biroq dasturdagi tushuntirish xatida ko'rsatilganidek , geometriya masalalarini bayon qilishda bu materialni kurs materialiga kiritish maqsadlariga bo'ysindirilgan shaxsiy mantiqqa xam rioya qilish kerak.Bu maqsadlar dastavval bolalarning fazoviy tasavvurlarini o'stirishdan,ularda turlicha geometrik figura(nuqta,to'g'ri va egri chiziq,to'g'ri chiziq kesmasi, egri chiziq,to'g'ri burchak va to'g'ri bo'lmagan burchak,turlicha ko'pburchaklar, doira,aylana ) xaqida tasavvur xosil qilishdan iborat.Bolalar bu figuralarning har biri alohida turganda ham,tanish figura boshqa bir figuraning qismini tashkil etganda ham ularni taniy olishlari ,farqlay olishlari ,ularni tasvirlay olishlari,berilgan bir necha figuradan boshqa bir figura yasashni o'rganishlari kerak.

Geometrik material bilan tanishishda o'lchashlarga ancha katta o'rin beriladi, bolalar kesmaning uzunligini (1sinf),berilgan ko'pburchakni perimetrini (2sinf) ,to'g'ri to'rtburchakning yuzini (4sinf) topishni bilishlari kerak.Bunda tushunchalarning ta'riflari bolalarga aytilmaydi(tabiiyki,ularni bilish talab qilinmaydi).Shu bilan birga ,bir qator tushunchalarga nisbatan (masalan,to'g'ri to'rtburchak ,kvadrat va boshqalarga nisbatan)shu tushunchalarning mazmunini bevosita aks ettiruvchi belgilar ko'rsatiladi va yaqin jinsdosh (o'xshash)tushunchalarga tegishli figuralar sinfidan tegishli figuralarni ajratish imkoni beriladi (“to'g'ri to'rtburchak –hamma burchaklari to'g'ri bo'lgan to'rtburchak “-“kvadrat-hamma tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak “va hokazo).Bolalar turli xil figuralarni tanib olishida ,sinflarga ajratishda tegishli belgilardan foydalanishlari kerak.

Dars –o'qitish jarayonida asosiy bo'g'indir .”Dars “- so'zining dastlabki ma'nosi – bu ma'lum muddatda bajarilishi kerak bo'lgan mehnat topshirig'idir.Dars o'quv ishining shakli sifatida 17 asrdan ,ya'ni 300yildan beri mavjud. Darsda bolalar faqat o'qibgina qolmasdan, balki jamoa bo'lib ishlaydilar ,unda muloqotda bo'lish qoidalariga o'rganadilar va har biri alohida o'rganilayotgan narsaga ,bir-birlariga ,o'qtuvchiga o'z munosabatlarini bildiradilar.Ana shu narsa tarbiyadir.Mavzu bo'yicha rejalashtirish asosida o'qtuvchi har bir darsga ish rejasini tuzadi. Hozirgi zamon matematika darsida ta'limiy ,tarbiyaviy va ongni oshirishga oid vazifalar bajariladi .

Darsning ta'limiy vazifalari o'quv dasturiga muvofiq bo'lishi lozim. Ta'limiy vazifalar nazariy tafakkurlash elementlarining shakllanishiga yordam beradigan nazariya ,tushunchalar va qoidalarning o'zlashtirishiga yordam beradi . Shu maqsadda o'qtuvchi materialni tanlashda yetakchi ,bosh va ikkinchi darajali tushunchalarni ajratadi ,darsning yangi materialni o'rganishga oid qismini puxta o'ylab

oladi, o'quvchilarning matematik nutqi ustidagi ishni quyidagi umumta'lim o'quv va malakalarni rivojlantirishni rejalashtiradi: kitob, bosma asosidagi daftar, o'lchov asboblari va o'lchash qoidalari bilan ishlash, doskada va daftarda chizmalar chiza olish o'quvi, bir-birini va o'zini o'zi nazorat qilish malakasini singdirish va hokazo.

Umumta'lim vazifaning qo'yilishi dars mazmuniga asoslanishi, lekin uni takrorlamasligi lozim. Ko'pincha uslubiy qo'llanmalarda va o'qtuvchining rejalarida umumta'lim vazifalar dars mavzusi nomini takrorlaydi

.Masalan, "1,2,3.....sonlari" mavzusini o'rganishda vazifa bunday tariflangan: "1-3sonlarini o'rganish ishini davom ettirish" "Sodda masalalar" mavzusida esa vazifa bunday qo'yilgan: "bolalarni sodda masalalar bilan tanishtirish". Bunday yondashishda umumta'lim vazifa umumiy ko'rinishda bo'lib qoladi, o'qtuvchi esa rejani ishlab chiqishda uslubiy qo'llanma va darslikka tayanib qolib, darsga o'zining ijodiy hissasini kamroq qo'shadi.

Umumta'lim vazifalar turlarini bilish darsni ma'noliroq va aniqroq bo'lishiga olib keladi. Bolalar darsda mashq qilib va eslab qolmasdan balki o'z oldilariga qo'yilgan aniq vazifani bajaradilar. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari ruhiy faoliyatlarini o'ziga hos xususiyatlariga qarab bir darsda bir necha ta'limiy vazifalarni qo'ymaslik kerak. Har bir mavzuni o'rganishga ancha katta miqdordagi soatlar ajratilishini hisobga olib, umumta'lim vazifalarning barcha turlarini sekin – asta, yetarlicha vaqt oralig'ida amalga oshirish lozim. Bir xil darslarda bolalar mavzuning g'oyalari bilan tanishadilar va nazariyani o'rganadilar, ikkinchi hil darslarga esa e'tiborlarini faktik (aniq) materialga qaratadilar, uchinchi xil darslarda esa o'quvlarni egallaydilar, to'rtinchi xil darslarga esa malakalarini takomillashtiradilar.

Yana qo'shimcha ma'lumotlar beriladigan darslarni rejalashtirish mumkin. Albatta, bitta darsning o'zida umumta'lim vazifalarning turli xillarini birgalikda qo'yish ham mumkin. "Bir xonali sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish" mavzusini o'rganishda umumta'lim vazifalarning amalga oshirilishiga oid misolni ko'rib chiqaylik.

Ta'limiy maqsad: bolalarni bunday g'oyalar bilan tanishtirish, o'nlikdan o'tib qo'shish usuli faqat birinchi o'nlik ichidagina emas, balki natural qatorning istalgan soni uchun ham saqlanadi. Bolalar 9+2ni bajarish usulini takrorlaydilar: 9ga o'n hosil bo'lishi uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha qo'shamiz, keyin qolganini qo'shamiz. Hisoblayman 9ga 1ni qo'shsam 10 bo'ladi, yani 1ni qo'shaman, 11 bo'ladi.

$$19+2 \quad 39+2$$

$$29+2 \quad 49+2$$

O'qtuvchi: Ushbu ifodalarga yuqoridagi usulni qo'llang. So'ngra ushbu misollar taklif etiladi: 109+2 119+2 129+2 139+2 149+2 va hokazo.

Misollar doskaga yoziladi, bu misollarni bolalarda bu ishga qiziqish uyg'onganligini o'qtuvchi sezguniga qadar berish mumkin. Bolalar og'zaki mulohaza yuritadilar. O'qtuvchi yordamida ular bunday xulasaga keladilar, har bir misolda ma'lum usul takrorlanmoqda. Bu usul o'nlikdan o'tib qo'shishdir. Uzil-kesil javob ya'ni yig'indi

ahamiyatga ega emas,uni aytmaslik ham mumkin,bu yerda eng asosiy narsa bolalar fikrining mantig'i ,g'oya bilan tanishishdir.Bu vazifaning amalga oshirilishi barcha bolalarda ,ularning matematik qobilyatlaridan qat'iy nazar,matematik mulohazalarga dastlabki qiziqish uyg'otadi.

Darsdagi ongni oshirishga oid vazifalar bolalarning aqliy va bilish qobilyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.To'rt yillik maktabning yangi darsliklarida o'quvchilarning diqqatini ,kuzatuvchanligini ,xotirasini rivojlantirishga ,ob'ektlarni tahlil qilish ,taqqoslash ,yashirin qonuniyatni fahmlashga qaratilgan mashqlar soni ko'paytirilgan.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi T.: Turon - Iqbol 2012 yil
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi T.: O'qituvchi, 2003 yil